



O'SMIRLIK DAVRIDA QADRIYATLAR TIZIMI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Shoberdiyeva Sevara Yo'ldosh qizi

O'zMU psixologiya mutaxassisligi
2-magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20353997>

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi o'smirlik davrida shaxs qadriyat ko'rsatkichlari va tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. O'smir shaxsining shakllanishida oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi va zamonaviy axborot makonining o'rnini dinamik jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy-psixologik omillar, shaxs rivojlanishi, oilaviy munosabatlar, identifikatsiya.

Abstract: This thesis analyzes the key socio-psychological factors influencing the formation of personality value indicators and value systems during adolescence. The roles of the family environment, peer groups, and the modern information space in the development of an adolescent's personality are dynamically highlighted.

Keywords: adolescence, value system, socio-psychological factors, personality development, family relations, identification.

O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va inqirozlarga boy o'tish bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda shaxsning dunyoqarashi, hayotiy strategiyalari va xulq-atvorini belgilab beruvchi qadriyatlar tizimi (baxt, oila, mustaqillik, ijodkorlik, muloqot va b.) shakllanadi. Bugungi globalashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda o'smirlar ongiga turlicha va ba'zan qarama-qarshi qadriyatlar ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, o'smirlarda qadriyatlar shakllanishining yetakchi omillarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ulardagi ijobiy qadriyatlarni yo'naltirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila — qadriyat shakllanishining boshlang'ich va fundamental manbaidir. O'smir yoshida oilaviy munosabatlar xarakteri bolaning shaxsiy qadriyatlariga bevosita ta'sir qiladi. O'smir o'z muammolari bilan ota-onasiga ishonishi va oiladagi umumiy qadriyatlar integratsiyasi uning kelajakdagi ijtimoiy adaptatsiyasini ta'minlaydi.

O'smirlik davrining yetakchi faoliyati — tengdoshlar bilan shaxsiy muloqot hisoblanadi. Bu davrda o'smir uchun ota-onaning fikridan ko'ra u mansub bo'lgan tengdoshlar guruhining qarashlari, kiyinish uslubi, qiziqishlari birinchi o'ringa chiqadi. O'smir guruhda o'z o'rnini topish, o'zini namoyon qilish va tan olinishga intiladi. Agar referent guruhda (o'smir uchun eng nufuzli guruh) do'stlik, o'zaro



yordam va o'qishga bo'lgan qiziqish ustun bo'lsa, o'smirda ham shu qadriyatlar o'zlashadi. Aksincha, deviant xulq-atvorli guruhlar salbiy qadriyatlar shakllanishiga zamin yaratadi.

O'smirlarda qadriyat yo'nalishlarining shakllanishi jahon psixologiyasida L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi, A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi va E. Eriksonning psixosijtimoiy identifikatsiya konsepsiyalari asosida fundamental o'rganilgan. Mahalliy psixolog olimlardan M.G. Davletshin, E.G'. G'oziyev, V.M. Karimova va G.B. Shoumarovlarning ishlarida o'smirlar qadriyatlar tizimining shakllanishi o'zbek milliy mentaliteti, etnik-psixologik xususiyatlar, o'z-o'zini anglash va oilaviy munosabatlar tizimi kontekstida chuqur tahlil qilingan. Xususan, g'arb olimlari ko'proq individualistik qadriyatlar shakllanishiga (mustaqillik, o'zini namoyon qilish) e'tibor qaratgan bo'lsa, o'zbek psixologlarining tadqiqotlarida oilaviy va jamoaviy (kollektivist) qadriyatlarning o'smir shaxsidagi ustuvorligi asoslangan.

Zamonaviy o'smir faqat real hayotda emas, balki virtual olamda ham ijtimoiylashmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va global madaniyat o'smirlarning qadriyatlar iyerarxiyasini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Bloklar, strimerlar va internet inflyuenserlari o'smirlar uchun yangi "etalon" (namuna) vazifasini o'tay boshladi. Bu ularda moddiy farovonlik, mashhurlik, individualizm kabi qadriyatlarning birinchi o'ringa chiqishiga yoki ijobiy yo'naltirilganda — o'z ustida ishlash, tillar o'rganish va global dunyoqarash shakllanishiga olib keladi.

O'smirlikda qadriyatlar shakllanishi faqat ichki psixologik jarayon emas, balki oila, tengdoshlar va axborot muhitining o'zaro dinamik ta'siri mahsulidir. Konferensiya doirasida o'smirlarda sog'lom va ijobiy qadriyatlarni shakllantirish uchun quyidagi amaliy qadamlar taklif etiladi:

- Umumta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'smirlarning psixologik xizmat tizimini kuchaytirish, ularning referent guruhlaridagi o'rnini korreksiya qilish.
- Ota-onalar uchun o'smir yoshidagi bolalar bilan muloqot o'rnatish bo'yicha psixologik treninglar va seminarlar tashkil etish (avtoritarizmdan hamkorlikka o'tish).
- O'smirlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ularni ijtimoiy foydali, kreativ va jamoaviy loyihalarga (ko'ngillilik, sport, IT to'garaklari) tizimli jalb etish.

Xulosa qilib aytganda o'smirlik davrida qadriyatlar tizimining shakllanishi murakkab, ko'p bosqichli va tizimli ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, u



subyektning ham ichki individual-psixologik o'zgarishlari, ham makro va mikro-atrof-muhit ta'siri ostida kechadi. Jahon va mahalliy psixologiya maktablari vakillarining (L.S. Vigotskiy, E. Erikson, M.G. Davletshin, V.M. Karimova) nazariy hamda amaliy qarashlarini umumlashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Nazariy integratsiya uyg'unligi: G'arb psixologik yondashuvlarida o'smirlar qadriyatlari ko'proq individualistik xarakterga ega bo'lib, shaxsiy identifikatsiya va mustaqillikka (emansipatsiya) yo'naltirilgan bo'lsa, o'zbek psixologiyasida bu jarayon etnik-madaniy xususiyatlar, jamoaviylik (kollektivism) va oilaviy birdamlik asosida shakllanadi. Zamonaviy o'zbek o'smiri shaxsida ushbu ikki qutbning (milliy va global qadriyatlarning) o'zaro integratsiyalashuvi va ba'zan transformatsiyasi kuzatilmoqda.

Oila va muhit yetakchiligi: Oiladagi munosabatlar dinamikasi (G.B. Shoumarov) va tengdoshlar guruhining ijtimoiy yo'naltirilganligi o'smir uchun qadriyatlar interiorizatsiyasini (tashqi mezonlarning ichki qoidalarga aylanishini) belgilovchi bosh omildir. Sog'lom oilaviy muhit va ijobiy referent guruh o'smirda burch, mas'uliyat va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar iyerarxiyasini tizimlashtiradi.

Media va raqamli makon transformatsiyasi: Bugungi raqamli jamiyatda internet va virtual modellar (A. Banduraning modellashtirish nazariyasi kontekstida) o'smirlarning qadriyat yo'nalishlariga an'anaviy institutlardan kam bo'lmagan darajada ta'sir o'tkazmoqda. Bu esa o'smirlarda moddiy va individual qadriyatlarning kuchayishiga zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
2. Baratov, Sh. R. (2014). Psixologik xizmat asoslari. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
3. Davletshin, M. G. (2002). Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston.
4. Erikson, E. H. (1994). Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company.
5. G'oziyev, E. G'. (2010). Ontogenetik psixologiya. Toshkent: Noshir.
6. Karimova, V. M. (2007). Oila psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Kohlberg, L. (1984). The Psychology of Moral Development: The Nature and Validity of Moral Stages. San Francisco: Harper & Row.
8. Nishonova, Z. T. (2011). Mustaqil fikrlash psixologiyasi. Toshkent: Fan.
9. Shoumarov, G. B. (2008). Oila psixologiyasi: Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent: Sharq.



POLAND

CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

10. Vigotskiy, L. S. (1984). Pedologiya podrostka // Sobranie sochineniy: V 6 t. T. 4. Moskva: Pedagogika.